

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Koreys tiliga xitoy tilidan o`zlashgan so`zlarning leksik-semantik
tahlili.**

Bajardi: “Koreys filologiyasi” ta’lim
yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Masharipova Nazokat Erkinbaevna _____

Ilmiy rahbar: “Koreys filologiyasi”
kafedrasi o`qituvchisi
Yusupova G. _____

TOSHKENT – 2012

Mundarija

Kirish.....

Asosiy qism

1-Bob. Koreys tiliga Xitoy tilidan soʻzlarning kirib kelishi va ularning semantik tahlili.....

1.1. Koreys tiliga ierogliflarning kirib kelish va qoʻllanish tarixi

1.2. Koreys tilidagi ierogliflarning tasniflanishi va leksik-semantik tahlili.....

2-Bob . Tabiatni ifodalovchi ierogliflarning leksik-semantik tahlili.....

2.1 Hayvonot olamiga tegishli boʻlgan ierogliflarning leksik-semantik tahlili... ..

2.2. Nabotat olamiga tegishli ierogliflarning leksik-semantik tahlili.....

2.3. Tabiiy hodisalarni ifodalovchi ierogliflarning leksik-semantik tahlili.

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....

Ilova.....

KIRISH

Til va ongni o`rganish hozirgi kun falsafa, psihologiya, filologiya, tilshunoslik sohalari izlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Tillarning o`zaro ta`siri yuqoridagi fanlar tomonidan doimo o`rganilib kelingan. Shu bilan bir qatorda u yoki bu tilning kelib chiqishi va ma`nosi har bir yo`nalish uchun qiziqarlidir.

Turli xalqlarning tillari hamisha o`zaro bir-birini boyitib rivojlanib kelgan. Bunday rivojlanish hech qachon bir yerda to`xtab qolmagan, doimo tillar chetdan kirib kelgan so`zlar hisobiga mukammallashib brogan.

Bunday jarayon esa, shubhasiz, muntazam tadqiqotlarni, izlanishlarni talab etadi. Izlanishlar esa hamisha taraqqiyotga olib borishi hammamizga yaxshi ma`lum.

O`zbekiston mustaqilligi tobora mustahkamlanib, o`zining ijobiy natijalarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma`naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan - yangi ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda ma`naviyatning ahamiyati, shubhasiz, benihoya kattadir. Zero yurtboshimiz ta`kidlaganidek: “Biz milliy ma`naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o`z oldimizga asosiy vazifa qilib qo`yar ekanmiz, bugungi kunda ma`naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta`sir o`tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o`rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo`ladi.”¹

Til har bir millatning ma`naviy qiyofasini namoyon etuvchi va o`zligini ifodalovchi muhim omillardan biri, insoniyat tafakkurining bebaho ko`zgusidir. Til asosiy muomala vositasi ekan, so`nggi yillarda chet tilini o`rganishga bo`lgan talab ancha oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib esa til o`rganish – ijtimoiy hayotimizda alohida o`rin egallab, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o`rganish

¹Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008. 29 b.

jarayonida nafaqat g'arb tillari, balki sharq tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va talab birmuncha yuqori darajaga ko'tarildi.

“Ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o‘quv yurtlari muhim o‘rin egallamoqda. O‘tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o‘quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta’lim olmoqda. Biz ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko‘nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz”².

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning rivojlanish manzarasiga nazar tashlasak, unda turli sohalar o'ziga xos yo'sinda va biri – biridan farq qiluvchi sur'atlar bilan rivojlangan va rivojlanyotganining guvohi bo'lamiz. Mamlakatlarning o'zaro rivojlanishi, tajriba almashinishida til muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan, oxirgi yillar mobaynida tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Til ikkita davlat o'rtasidagi eng muhim diplomatik aloqalarni olib borishdagi asosiy qurol hisoblanadi. Tarixdan ham ma'lumki, qo'shni yoki uzoq davlatlar o'rtasida mustahkam aloqani o'rnatish uchun elchilarga birinchi navbatda yuklatiladigan vazifa bu, albatta, o'sha davlat tilini o'rganish hamda kuchli diplomatik harakatlar orqali mustahkam aloqani o'rnatish bo'lgan.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan bo'lib ko'pgina sharq davlatlari bilan savdo va madaniy aloqasi kuchli bo'lgan, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki o'sha davrlardanoq

²Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. T.: O'zbekiston. 2012. 3 b.

O'zbekiston boshqa davlatlar bilan bir qatorda Koreya mamlakati bilan ham o'zaro do'stona aloqada bo'lgan, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlab, ko'p sohalarda yaxshi hamkor davlatlar sifatida nom qozongan. Buning isboti sifatida Koreya Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kyung Je Minning "Jahon" axborot agentligiga bergan intervyusidagi quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: "Korea Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalar 1400 yildan ortiq tarixga ega"³. Elchi janoblari keltirib o'tgan ana shu faktning o'ziyoq O'zbekiston-Koreya munosabatlari tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bugungi kunda ham ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida Koreya Respublikasi bilan hamkorlik qilishga respublikamiz hukumati va shaxsan yurtboshimiz Islom Karimov jiddiy xayrixohlik hamda ulkan rag'bat bilan munosabatda bo'lmoqdalar. Mamlakatimizda koreys tiliga yo'naltirilgan maktab, litsey, kollej, institut va universitetlar faoliyat olib bormoqda. Ularda har yili yuzdan ziyod koreys tili mutahasislari etishib chiqmoqdalar⁴.

Shunday ekan, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar nafaqat siyosiy, iqtisodiy balki madaniy-ma'rifiy, fan-texnika, ta'lim kabi yo'nalishlarda ham jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. "Hozirgi kunda zarur qo'llanmalar, o'quv qurollari bilan ta'minlash uchun Koreya hukumati bilan kredit ajratish" to'g'risida shartnomaga qo'l qo'yilgan⁵. Bugungi kunda Yurtimizda Koreys tilshunosligining turli yonalishlarida izlanishlar olib borilib, bitiruv malakaviy ishlari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar yaratilib koreys tili rivojlanishiga hissa qo'shib kelinmoqda.

Koreys tili leksikologoyasi 3 qatlamdan iborat. Ular koreyscha, xitoycha va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlardir.⁶ Dunyo xalqlarida bir tilning boshqa tillarga ta'siri tabiiyligi kuzatilgan. Shunday ekan, biror til yo'qki, boshqa tildan

³ Xalq so'zi. 2010-yil.,17-yanvar, 4-son (4919),1-bet.

⁴ www.chamber.uz

⁵ I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masuldirmiz . T. 2001. 39-bet.

⁶ Koreya spravochnik.Seul. 1993. 43-b.

soʻz oʻzlashtirmagan boʻlsa. Koreys tilini kuzatish natijasida bu tilga mansub xalqlar ham boshqa tillardan talay soʻzlarni oʻzlashtirganligining guvohi boʻlamiz. Shu jumladan, xitoy tilidan kirib kelgan soʻzlar koreys leksikasida yetmish foizni tashkil etadi. Buning sababi esa, Xitoyning koʻp asrlar davomida Korea ustidan oʻz xukmronligini oʻrnatib kelganidadir. Yuqoridagi maʼlumotdan koʻrinib turibdiki Xitoy tilidan oʻzlashgan leksikasiz koreys tilini tasavvur qilib boʻlmaydi. Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, bizning tanlagan bitiruv malakaviy ishning mavzui tom maʼnoda dolzarb va ahamiyatli boʻlib, u koreys millati hamda ularga hamkor va hamdoʻst boʻlagan oʻzbek millati uchun ham qadrlidir.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Biror bir mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-maʼrifiy tarixini oʻrganish, avvalo, uning tilini oʻrganishdan boshlanadi. Koreys tilini oʻrganish jarayonida biz uni tashkil etuvchi leksika, soʻzlar tarixi va soʻz boyligi, grammatikasini chuqur idrok etishdan boshdik. Bu, oʻziga yarasha murakkab jarayon hisoblanib, uni turli olimlar turlicha nuqtai nazardan oʻrganishdi va oʻrganib kelishmoqda. Xususan, rus olimlaridan, Mazur Yu.N., Kim F., koreys olimlaridan 김백화 ana shular jumlasiga kiradi. Bu boradagi izlanishlar hali-xanuz davom etmoqda.

Yuqorida keltirilgan olimlardan Janubiy Koreyalik olim 이익섭 ning tadqiqot natijalari oʻziga xos ahamiyatga ega. Negaki, u olib brogan tadqiqot natijalari nihoyatda murakkab boʻlib, tilning har bir boʻlimini oʻz ichiga qamrab oladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Koreys tili leksikasidagi Xitoy tilidan oʻzlashgan tabiatni ifodalovchi soʻzlarning semantik tahlilini yoʻritib berish.

Qoʻyilgan maqsaddan kelib chiqib quyidagi **vazifalar belgilandi:**

- Xitoy tilidan koreys tiliga soʻzlarning kirib kelish tarixini oʻrganish;
- Hozirgi kundagi xitoy tilidan oʻzlashgan leksikani qoʻllanilish darajasiga koʻra holatini koʻrib chiqish;
- Oʻzlashgan leksikani oʻrganib tasniflash ;

- Tanlangan leksikani leksik-semantik yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishning metodi: Mazkur mavzuni keng va atroflicha o'rganib chiqish va yoritishda tekshiruv hamda tizimlashtirish metodi, shu bilan birga qiyosiy metod qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari: Mazkur ishda koreys tilidagi xitoy tilidan kirib kelga so'zlarni yoritish uchun asosiy manba sifatida Cho` Nam Ho`ning “한자어 연구” va Chxe Vanning “Qiziqarli ierogliflar” (재미있는 한자어 1) nomli kitoblar qamrovidagi bilimlar qo'l kelganligini alohida qayd etish lozim. Shuningdek, qo'shimcha adabiyotlar sifatida o'zbek, koreys va rus tillarida yaratilgan bir qancha kitoblar, risolalar, internet saytlari hamda lug'atlardan foydalanildi. Bundan tashqari quyidagi manbalardan ham foydalanishga katta e'tibor berildi.

1. Солнцев В.М.Очерки по современному китайскому языку. М. 1959.
2. Useful Chinese Characters. Korea. 2007.
3. 조남호. 두시언해 한자어 연구.서울.2001.
4. 중학 자습서.서울 2001.
5. 재미있는 한자어 1.서울.2004

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Ushbu Bitiruv Malakaviy Ishdan kelgusida talabalar shu mavzu atrofida bahs yurituvchi ma'ruza yoki referat tayyorlashda foydalanishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda BMI kelgusida bundanda chuqurroq ilmiy izlanishlarga asos bo'lib xizmat qilishi va keng yoritilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv Malakaviy Ishning tarkibi quyidagilardan iborat: “Kirish”, “Asosiy qism”(II bob), “Xulosa” va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

“Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari belgilangan. Manbalar (koreyscha, ruscha, o‘zbekcha) ko‘rsatilgan va ishning tuzilishi bayon etilgan.

“Asosiy qism”da xitoy tilidan so‘zlarning kirib kelish tarihi, ierogliflarning hozirgi shaklga kirguncha qanday holatda bo‘lganligi, xitoy ierogliflarining koreys leksikasiga ta‘siri va uning qo‘llanilishi, tanlangan so‘zlarning leksik-semantik tahlili 2 bobga bo‘linib yoritilgan:

I bobda Xitoy tilidan Koreys tiliga so‘zlarning kirib kelishi va ularning semantik tahlili yoritilib berilgan.

II bobda Tabiat va Ob-havoga tegishli ierogliflarning leksik-semantik tahlili yoritilib berilgan.

“Xulosa” qismida, bitiruv malakaviy ish mavzui yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida yuzaga kelgan fikrlar va bu xususdagi jiddiy mulohazalardan kelib chiqadigan xulosalar bayon etiladi.

Ilmiy ishning yangiligi. Mazkur Bitiruv Malakaviy Ishda ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan Xitoy tilidan o‘zlashgan leksikaning semantik tahlili o‘z ichiga katta miqyosdagi leksikani qamrab olishi va aynan o‘zbek tilida xanuzgacha mazkur mavzuga murojaat qilinmaganligi, shu bilan birgalikda bu dolzarb masala yuzasidan tadqiqotlar olib borilmaganligi o‘z-o‘zidan ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

I Bob

Koreys tiliga Xitoy tilidan ierogliflarning kirib kelishi va ularning ma`nolari

1.1.

Ieroglifl

arning kirib kelish va qo`llanilish tarixi

Har qanday tilning lug`at boyligiga nazar soladigan bo`lsak, uni tashkil etuvchi leksikada shu tilga mansub xalqqa uzoq va yaqin bo`lgan boshqa tillardan o`zlashgan so`zlarni ko`rishimiz mumkin va ana shu o`zlashgan so`zlar o`sha tilning ma`lum bir foizini tashkil qiladi. Umuman olib qaraganda ma`lum bir tilga boshqa til leksikasining o`zlashishiga ko`proq muayyan bir davlatning qaysidir mamlakatga qaramligi, o`sha kuchli davlat tazyiqi ostida bo`lib, mustamlaka sifatida unga bo`ysunib kelganligining oqibat-natijasi, deb qaralsa o`rinli bo`lar edi. Yangi Koreya yarim oroli aholisi ko`p asrlar mobaynida Xitoy imperiyasi mustamlakasi ostida edi. Xitoy yozuvi to`g`risida gap ketar ekan, yozuvning Koreya yarim oroliga kirib kelishi eramizdan avvalgi III asrdan boshlab eramizning XIX asrigacha Xitoy yozuvi Koreyaning rasmiy yozuvi hisoblangan.⁷

Yuqoridagi ma`lumotdan yaqqol namoyon bo`ladiki, koreys leksikasini asosini Xitoy ierogliflari tashkil qilgan. Koreys lug`ati(leksikasi)ning 70 foizi xitoy ierogliflarining o`zlashtirilishi natijasida paydo bo`lgan:

(國) 국 – 나라 – davlat

(每日) 매일 – 날마다 –har kun

(日) 일 – 날 – kun⁸

⁷ Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. М. 1959.

⁸조남호. 두시언해 한자어 연구.서울.2001.19 쪽.


Koreys tili yozuvi shunisi bilan marakkablashganki, unda bitta ieroglif bir nechta ma`no (semantika)ga ega bo`lgan. Shu sababdan koreys tili lug`at boyligi oshib, sezilari darajada sinonimlar va deyarli ma`nodosh bo`lgan so`zlarning miqdori ortib boradi. Shu yo`l orqali leksika bo`lib, adabiy va oddiy so`zlashuvdagi tilga ajralgan.⁹

Ma`lumki, qadimiy yozuv rasmlil bo`lgan. Bunday yozuv o`zida rasm-sxemalardan iborat bo`lgan. Yozuvning muhim belgisi sifatida ma`lum bir so`zni bildiruvchi belgining paydo bo`lishi va keyinchalik uning aniq so`zga aylanib mustaqil tarzda o`z o`qilishiga ega bo`lish jarayoni e`tiborni tortadi. Ilmiy tarafdin yozuv grafik belgilar yig`indisi yoki , og`zaki tilning qog`ozdagi ko`rinishidir.


Uning ilk ko`rinishlari davrlar osha o`z tusini o`zgartirib hozirgi ko`rinishga ega bo`lgan:

 [수] 물 suv

ilk ko`rinishi




hozirgi ko`rinishni olishi




 [화] 불 olov

Ilk ko`rinishi



Hozirgi ko`rinishni olishi



10

Xitoy yozuvi etarli darajada rivojlangan ierogliflardan iborat yozuvdir. Ma`lumki har bitta belgi- ieroglif alohida ma`noga ega sodda so`z tushunchasini anglatadi. Shu sababdan biz ierogliflarning sodda so`z sifatida ko`rib chiqamiz. Xitoy ierogliflari oddiy rasmlil ko`rinishdan hozirgi ko`rinishga kelgunga qadar

⁹조남호. 두시언해 한자어 연구.서울.2001.95 쪽.

¹⁰ <http://hanja.pe.kr>.

shakllanishning uzoq va murakkab yo`lni bosib o`tgani. Hozirga qadar yozuvdagi ierogliflar paydo bo`lgan vaqtidagidek o`zida predmetning rasmiy ko`rinishini o`zida saqlab qolgan.

Tabiiy yo`l bilan, tilning rivojlanishi orqali rasmiy yozuv chiziqli yozuv ko`rinishiga o`tgan. Bu o`tish davrida ko`pgina ierogliflar o`zini asl ma`nosini saqlab qolmagan. Zamonaviy xitoy tilidagi ierogliflarning eng birinchi predmet ko`rinishlarini tiklash qiyin. Ierogliflarning hozirgi ko`rinishi qadimiy ko`rinishidan tubdan farq qiladi. Ieroglifning hozirgi ko`rinishi yozuvning tez yozilishi uchun tezlik mehanizmini yaratib beradi.

Endigi navbatni Koreys tili yozuv tarixini ko`rib chiqishga va uni tugatish idrok etishga qaratamiz. Koreys tili XV asrning o`rtalarida paydo bo`lib “훈민전음”(1443-1446) deb nomlangan. “Hunmin Cho`im” alfaviti Sedjon¹¹ qiroli tomonidan saroy olimlari uyushmasi Chon In Jon boshchiligida yaratilgan. Bundan tashqari unga mashhur shoir Son Sammun (1418-1456), olim Chxe Xan (1417-1475), shahzoda An Phen va Suyan hissa qo`shgan va Buddizm qo`lyozmalari xalqdan xalqqa o`tib, keng tarqalishi uchun bu alifbo anchagina ta`sir ko`rsatgan. Bu narsa buddizm Koreya millati mafkurasiga aylangan davrga to`g`ri keldi. Bir nechta qo`lyozmalarda qo`rquv va o`lim jazosidan xavfsirash tufayli “hunmin cho`im” alfaviti ishlatilmagan. O`sha paytda alfavit “honmun” (훈문) nomini olgan. Koreya ozod bo`lgan paytdan boshlab “honmun” nomi “kukmun”(국문) nomiga o`zgarib rasmiy davlat yozuviga aylandi. Koreys tili alfaviti mongol va hind tillaridan kelib chiqqan, degan gepotiza ham mavjudligini aytib o`tish maqsadga muvofiq.

Kelib chiqish tarixiga ko`ra koreys tili oltoy tillar oilasida alohida sinf sifatida o`rin olgan.¹² Lekin, nima bo`lganda ham, alfavit original tuzilgan, ko`pgina osiyo va evropa tillar oilasiga kiruvchi

¹¹ Choson qirolligining to`rtinchi qiroli (1392- 1910), taxtni 1418 dan 1450 yilgacha boshqargan.

¹² Реформаторский А.А. Введение в языковедение. М. Аспект-пресс, 1999 г.

tillarni o`rganishga asoslangan holda paydo bo`lgan. O`rta asrlar davri Koreyada ijtimoiy-siyosiy turg'unlik davri sifatida bir muncha jiddiy murakkabliklarni o`z ichiga oladi. Ana shu uzoq davr mobaynida Koreya ichki siyosati tang ahvolda edi. Lekin, aytib o`tish lozimki aynan shu davr dunyoga go`zal kashfiyot va ajoyib san`at namunalarini berdi, devorlarda qoldirilgan beqiyos ahamiyatga ega bitiklar hamda buddizm ruhidagi me'moriy shular jumlasidandir.¹³

Koreyaning qadimiy madaniyati o`zida faqat Xitoyning ta'sirini emas balki shimoliy-sharqiy osiyo qabilalari ta'sirini ham mujassam etadi.<sup>14</sup> Koreyaning siyosiy va davlat qurilishi, g`oya, qonun chiqaruv tuzilmasi, etnik normalari, madaniyati, ta`lim tizimlari va uning rasmiy hayotini tashkil qiluvchi boshqa sohalari Xitoy davlatinikiga o`xshab ketadi. Ammo hamma narsani kirib kelgan deb ayta olmaymiz.

Tilning o`ziga xos jihatlari hamda ierogliflarning tuzilishi koreys tilining eng nozik va noyob xislatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Lekin aytib o`tish joizki, hozirgi kunda ierogliflar deyarli ishlatilmaydi. Biroq ierogliflar mutlaqo ahamiyatini yo`qotgan va ular umuman qo`llanilmaydi deyish haqiqatga to`g`ri kelmaydi.

Koreyada Xitoy ierogliflarini boshqa davlatlarga nisbatan birinchilardan bo`lib keng qo`llash yo`lga qo`yilgan edi. Kundalik hayotga Xitoy yozuvining kirib kelishi qo`shni davlatga uning har tomonlama bog`liqliligini ko`rsatuvchi sabablardan biri edi.

Ieroglifning asl mohiyati uning Xitoy tili yozuv tizimi sifatida yaratilganligida bo`lib, uning boshqa tillar tuzilishi bilan o`xshash tomonlari yo`qligi, boshqa tillar bilan umuman sig`ishmasligida ko`rinadi.

Xitoy ierogliflarining hammasi koreys tilini ma`no jihatdan ochib berish uchun mos va yetarli darajada ekanligi ma`lum bo`lgach, koreys xalqi xitoy tilidan

¹³ Koreya spravochnik. Seul. 1993. 212-b.

¹⁴ Актуальные проблемы корейского языкознания лекция. ТашГИВ.2004 .

oddiy va murakkab soʻzlarni oʻzlashtirishni boshlagan. Shu bilan bir qatorda koreyslar xitoy tilidagi ayrim ierogliflarni ishlatishni boshlaganlar.

Koreyada oʻrta asrlar davrida katta siyosiy-madaniy oʻzgarishlar yuz berdi. Bu davrda Koreya qaltis siyosiy holatni boshidan kechirayotgan boʻlsada, aynan shu davrda Koreya dunyo madaniyati durdonalaridan boʻlgan devoriy rasmlar, budda inshootlari va boshqalarni yaratib berdi. Aynan oʻsha davrda lirik nasr va nazm yaratildi.¹⁵

Silla qirolligi davrida koreys tili yozuvini xitoy ierogliflari orqali tushuntirib berish bilan aralash yozuv tizimi boʻlgan “hyangchhal” ga asos solindi, unda asosan atoqli otlar yozilar edi. Bizning davrimizgacha “hyanchhal”da yozilgan maʼlumotlar juda ozchilikni tashkil etib, u asosan “hyanga” janridagi halq qoʻshiqlari orqali etib kelgan. Kore qirolligi davriga kelib “hyanchhual ” sekin-asta yoʻqolib boradi va buning asl sababi Xitoy ierogliflarni “hancha”ni koreys tili uchun ishlatilishi boʻlgan.

Afsonalarga koʻra “hancha”ni buyuk Xitoy olimlaridan biri koʻp yillar mobaynida qush va hayvonlarni, atrof-muhitni oʻrganish orqali yaratgan. Tarixdan inkor qilib boʻlmas aniq faktlarga asoslangan yozuv kashf qilgan buyuk shaxslar mavjud (Sejon, Kiril va Mefodiy), ammo ieroglifli yozuv bu umuman boshqa masala edi. Soʻzsiz “hancha”- buyuk izlanishlar natijasi edi. Ilk davrlarda ierogliflar sxemasi va tuzilishi maʼlum bir narsa, jism yoki joyning nusxasini eslatar edi. Masalan, 山 "san" (togʻ) – koʻrinishidan togʻni eslatadi, 門 "mun" (eshik) ieroglifi esa eshikning ushlagichlarini eslatadi. “Hancha”ning bu guruhi piktogramma deyilib uning miqdori chegaralangandir.¹⁶ Keyingi guruh ierogliflarga diagrammalari oson va figuralar bilan qanaqadir aniqlikni koʻrsatadigan “hanja”lar qoʻllanilgan, masalan, ularga misol qilib son ierogliflarini olishimiz mumkin:

¹⁵ Koreya spravochnik.-Seul. 1993. 211-b.

¹⁶ 두시언해 한자어 연구. 서울. 2001.19 쪽.

一 (bir)

二 (ikki)

三 (uch)

Uchinchi guruhni yig`ma ierogliflar deb olsak, unda borliqdagi narsa va hodisalar ifodalanib kelinadi:

Daraxt (木) + daraxt (木) = (林) o`rmon

Ierogliflarning shunday guruhlari ham borki unda bitta ieroglifning ikkita o`qilishi yoki bitta ieroglifning yana sinonimi ham bo`lishi mumkin. Masalan, qari odam so`zi ikki xil ieroglif orqali ifodalanadi. Ikki yoki undan ortiq “hancha”ni qo`shilishi orqali yangidan-yangi leksika paydo bo`lar edi. Tilshunoslar “hancha”ni o`rganishning turli xil tizimlarini yoqlab chiqishmoqda.

Bugungi kunga kelib xitoy tilidan o`zlashgan so`zlar ustida izlanishlar olib borishga qiziqish ortib bormoqda. Hozirgi davrda bir qancha ierogliflar aholi turmush tarzida saqlanib qolgan bo`lib, keng tarzda qo`llaniladi. Ularning o`zi ieroglif shaklida yozilgan bo`lsada koreys yozuvi orqali ma`nosi ochib beriladi. Eng to`liq hisoblangan ierogliflar lug`atida 53 000 ta ieroglif mavjud ekanligi aniqlangan. Ma`lum bo`lishicha bu katta miqdordagi lug`atda ham anchagina ierogliflar tushurib qoldirilgan. Xitoy tilidan o`zlashgan so`zlar (Hancha)dan foydalanish Koreys tilidagi talaffuzi bir hil bo`lgan so`zlarning ma`no jihatdan chalkashib ketishini oldini oladi.

Birgina 수도 so`zining qay ma`noda keganini uning ieroglifidan bilib olish mumkin:

1. 修道 – ruhiy dissiplina
2. 受渡 – olish-berish
3. 囚徒 – mahbus

4. 水都 – suvdagi shahar (masalan: Venesiya, Gretsiya)
5. 水稻 – guruch
6. 水道 – oqim
7. 隧道 – tunel
8. 水道 – suv yo`li
9. 首都 – poytaxt
10. 手刀 – qayirma pichoq¹⁷

Ierogliflar ham yozilish tartibi bo`yicha bir nechta ierogliflar majmuasini eslatadi: Bahor 봄 춘(春)

kun(日) + to`liq(十) + asos (屯)

Kuz (秋)

guruch(禾) + olov(火)

Uy (館) :

emoq(食) + cho`qqi(官)

Aslida bir yil to`rtta faslga bo`linsada oldingi zamonlarda ierogliflar vatani Xitoyda bir yilda bahor(春) va kuz(秋) bo`lgan xolos. Shu sababdan 춘추(春秋){bahor kuz}degan so`z bir yil degan ma`noni anglatgan va bu so`zni yoshni so`rashda qo`llanilgan. Hozir ham ayrim keksa odamlar shu so`zni kishi yoshini aniqlashda ishlatishadi.

Sino-koreys leksikasi (Koreys tiliga xitoy tilidan kirib kelgan so`zlardan iborat lug`at) hozirgi kunda koreys lug`at boyligining oltmish foizini ni tashkil

¹⁷ Useful Chinese Characters. Korea. 2007.65p.

etib, koreys tili lugʻat boyligini endilikda ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar toʻldirib bormoqda.¹⁸

1.2.

Ieroglifl

arning tasniflanishi va leksik-semantik tahlili.

Koreyada avvalgi davrlardan boshlab ierogliflar insonlar turmush tarziga kirib borgan. Shu bilan birga bu ierogliflar aksariyat hollarda matnning asosiy qismini tashkil etib kelgan. Ierogliflardan foydalanish XX asrgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Imloni isloh qilish bosqichlaridan oʻtilgan taqdirda ham ierogliflar oʻzining ilk koʻrinishini saqlab qolib, tushinib olish uchun ham qulayligini yoʻqotmagan.

Hozirgi zamon koreys tilida ierogliflarning qoʻllanish usulidan keng tarqalgani bu toʻrttalik ierogliflar (sajasango)ning tatbiq etilishidan hosil boʻlgan iboralarni soʻzlashuv va adabiyotda saqlanib qolganligidir. Quyida bir qancha iboralarning leksik-semantik tahlilidan misollar koʻrib chiqamiz:

고진감래 (苦盡甘來)

Qaygʻudan keyingi shodlik.

고 (苦) – «gʻam, qaygʻu»

진 (盡) – «butun»

감 (甘) – «mehribon»

래 (來) – «kelmoq»¹⁹

Maʼlumotlarga koʻra Xitoy yozuvi Koreyaga eramizdan avvalgi III asrlarda kirib kelgan. XIX asr oxirlarigacha Xitoy tili Koreyada rasmiy til

¹⁸ http://en.wikipedia.org/wiki/Sino-Korean_vocabulary

¹⁹ Белошапкова В.А. Современный русский язык. М.: Высшая школа. 1977. 12.

hisoblanib kelgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki koreys halqi Xitoy ierogliflarini uzoq davrlar mobaynida qo'llab kelganlar. Yozuvdagi uzoq davrlar mobaynidagi osha bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olganda ham koreys tilidagi ierogliflar o'zinig ilk ko'rinishini saqlab qolganligining guvohi bo'lamiz. Shunisi aniqki, ierogliflardan foydalanish bu tillar orasidagi yaqinlikni keltirib chiqaradi. Chunki, koreys tilidan tashqari Uzoq Sharqning boshqa davlatlarida ham xitoy tilidan o'zlashgan katta miqdordagi leksika mavjud. Shuni takidlab o'tish kerakki, koreys tilida chop etiladigan gazetalardagi matnlaning to'rt dan uch qismini Xitoy tilidan o'zlashgan leksika tashkil qilib, aytib o'tilganidek koreys alfavitida faqat suffiks va qo'shimchalardangina foydalaniladi. Bu hol XX asr o'rtalarigacha davom etgan. Ammo 1945 yildan boshlab yozuvdan ierogliflarni sekin-asta chiqarib tashlab uni koreys alfaviti bilan to'ldirish boshlangan. Bu jarayonning qizg'in pallasi XX asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi.

Demak biz ierogliflarni o'rganish jarayonida ularni ma'lum bir mavzularga bo'lgan holda ko'rib chiqamiz :

A) Odam tana azolari :

肝(간/간) buyrak

肚(배/두) qorin

肘(팔꿈치/주) tirsak

肩(어깨/견) elka

肺(허파/폐) o`pka

背(등/배) o`rqa

胃(باط/위) oshqozon, bu so`z o`zak sifatida ishlatilib yangi so`z

yasalishida qatnashgan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz:

- 위궤양 oshqozon yarasi (kasallik),
- 위벽 oshqozon devori

胴(큰창자/동) yo`g`on ichak

胸(가슴/흉) ko`krak

- 흉중 xayol; ruh; xohish , bu so`zda ko`krak 흉 so`zi asos qilib olingan
- 흉상 ko`krak qafasi tasviri, mazkur ibora ko`p hollarda tibbiyotda ishlatiladi.

脚(다리/각) oyoq

脣(/순) lab

腕(팔/완) qo`l

B) Odam tana a`zolarini ifodalovchi ierogliflar murakkab emasligi uchun uni Koreya ta`lim tizimida o`rta maktab darsligiga kiritilgan va odam ta`na a`zolarini ifodalovchi ierogliflar son jihatdan boshqa mavzularga doir ierogliflardan ko`ra kam hisoblanadi:

腦(뇌/뇌) miya

腸(창자/장) ichak

心(마음/심) yurak

足(발/족) oyoq

手(손/수) qo`l²⁰

C) Sonlar, ma`lumki koreys tilida ikki xil sanash tizimi bo`lib koreys va xitoy sanoq tizimi hisoblanadi hamda so`zlashuv uslubida ko`p hollarda xitoy tilidan o`zlashgan sonlar qo`llaniladi:

²⁰ <http://k.daum.net>

1	一	일	bir
4	四	사	to`rt
5	五	오	besht
6	六	육	olti
8	八	팔	sakkiz
9	九	구	to`qqiz
10	十	십	o`n
100	百	백	yuz
1000	千	천	ming

Koreys tilida sonlarning qo`llanilishi o`zbek tilidan shunisi bilan farqliki, koreys tilida o`nlik, yuzlik sonlar butunligicha ifodalinadi:

20 이십 soni- ikki 이 va o`n 십 sonlarini qo`shilishi orqali yasaladi

5160 오천백육십 soni besh 오, ming 천, yuz 백, olti 육 va o`n 십 sonlarini qo`shilishi orqali yasaladi.

D) Tabiat hodisalari:

수 (水) – suv

금 (金) – oltin

한천 (旱天) – issiq havo

E) Mavhumlikni anglatuvchi otlar

자유 (自由) – erkinlik

성공 (成功) – omad²¹

²¹ Useful Chinese characters. Seoul. 2007y. 50p.

F) Ta`lim

학습전략 (學習戰略) o`qitish metodi

학제 (學制) ilmiy vazifalar

협동학습 (協同學習) umimiy ta`lim

Hancha (sino-koreys) leksikasini o`rganishda biz yuqoridagiga o`xshagan murakkab morfema so`zlarga duch kelamiz:

포도 (葡萄) uzum

석류 (石榴) anor

선호 (船號) marjon

Murakkab so`z bu bitta so`z o`zagiga bir yoki undan ortiq so`z qo`shib paydo qilingan so`zga aytiladi. Ierogliflarda ham bunday murakkablik mavjud. Unda ikkita sodda ieroglifning qo`shilishi orqali umuman boshqa ma`noni anglatuvchi so`z hosil bo`ladi:

교훈 (教訓) majburlash

국어 (國語) davlat tili

부부 (夫婦) umr yo`ldosh

우정 (友情) do`stlik

강도 (強度) qasr

교기 (校旗) maktab bayrog`i

So`z o`zagiga qo`shimcha qo`shilishi orqali yasaladigan so`zlar

지역별 (地域別) payonlarga

인문계 (人文계) gumanitar yordam

Statistik ma'lumotlarga ko'ra koreys lug'at boyligining 69 foizini sino-koreys (xitoy tilidan o'zlashgan leksika), 24 foizini sof koreys leksikasi, 6 foizini esa boshqa tillardan o'zlashgan leksika tashkil qiladi.²²

